

N. Tojiboyeva

Andijon davlat pedagogika instituti
“Umumiy psixologiya” fani o’qituvchisi

N.O.Numonova

Andijon davlat pedagogika instituti
1-kurs talabasi, matematika ta’lim yo’nalishi

Annotatsiya : *Ushbu maqolada «Shaxs» tushunchasi va uning psixologik tuzilishi, shaxsning faolligi va yo’naltirilganligi bayon qilinadi. Shaxsning shakllanishi va rivojlanishi qonuniyatlari hamda ularning mexanizmlari tadqiq etiladi.*

Kalit so’zlar : *shaxs, individ, individuallik, endopsixika, ekzopsixika, motiv, qiziqish, biogenetik, sotsiogenetik.*

Abstract: *This article describes the concept of "Person" and its psychological structure, activity and direction of the person, and the formation of the person.*

Key words: *person, individual, individual, endopsychic, exopsychic, motive, interest, biogenetic, sociogenetic.*

Аннотация: *В данной статье рассмотрено понятие «Человек» и его психологическая структура, деятельность и направленность личности, а также формирование личности.*

Ключевые слова: *человек, индивидуум, индивидуум, эндопсихический, экзопсихический, мотив, интерес, биогенетический, социогенетический.*

Prezidentimiz maktab bilan kollejlarda o’rtasidagi bog’liqlikni mustahkamlash, xususan, ushbu maktabda tajriba sifatida 11-yillik ta’limni qayta tiklash, uning qoshida o’quv-kasb kursi tashkil etish zarurligini ta’kidlaydi.

Yuqori sinflarda bolalar shaxs bo’lib, jamoa bo’lib shakllanadi, dedi

davlatimiz rahbari. Ayni o'sha paytda ularni o'zlari o'rgangan muhitdan ajratib qo'ymaslik kerak. Bu yoshlarning ruhiyatiga, davomatiga, oxir-oqibatda ta'lim-tarbiyasiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Shu bois ta'lim jarayonining usluksizligini ta'minlash, o'quv dasturlarini takomillashtirish zarur.

Shavkat Mirziyoyev 15-iyun kuni Toshkentda bo'lib o'tgan "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofliqini asrash – davr talabi" mavzuidagi anjumanda so'zlagan nutqida yosh avlod tarbiyasi haqida alohida to'xtalib o'tdi.

"Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan", deya ta'kidladi Prezidentimiz.

Huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatida psixologiya yoki psixologik bilimlar doimo zarur bo'lgan. Chunki bu inson va uning ruhiyati bilan bog'liq va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari bevosita va bilvosita shaxslar bilan ishlaydi. Shunday ekan, inson shaxsini o'rganish masalasi bilan falsafa, psixologiya, pedagogika kabi fanlar shug'ullanadi. Hozirgi davrda inson muammosi aniq va ijtimoiy fanlarning umumiy tadqiqot obyektiga aylanib bormoqda.

O'z menligini anglagan, o'zgalar bilan o'zaro munosabatlarga kirisha oladigan, tabiat va jamiyatga faol ta'sir o'tkaza oladigan, har qanday individga shaxs deyiladi.

Shaxs tushunchasi keng va ko'p qirralidir. Mehnat qila olish k o'nikmasining mavjudligi, insonlar bilan birgalikda faoliyat munosabatni amalga oshirayotgan kishi asta - sekin shaxsga aylanib boradi.

Chaqaloqning inson zotiga mansubligi individ tushunchasida ifodalanadi (bundan farqli o'laroq, hayvonot bolasi dunyoga kelishi bilanoq va hayotning oxiriga qadar jonzod deb yuritiladi). «Individ» tushunchasida kishining nasl-nasabi ham mujassamlashgan.

Individ tushunchasi professor E.G 'ozievning "Umumiy psixologiya" darsligida tavsiflanishicha, individ lotincha ajralmas, alohida zot ma'nolarini anglatib, inson zotiga xoslik masalasini belgilab beradi. Shuningdek, katta yoshdagi ruhiy sog'lom odamlar ham, chaqaloq ham, nutqi yo'q oddiy maiakalami o'zlashtira olmaydigan aqli zaiflar ham individlar deb ataladi.

M .G .Davletshin tahriri ostida chiqqan "Psixologiyadan qisqacha izohli lug'atda" individ bo'linmas, ayrim jins, shaxs ma'nolarini anglatib, biologik turga kiruvchi alohida tirik mavjudot sifatida ko'rsatib o'tiladi

Umumiy psixologiya fanida shaxsning shakllanishi va rivojlanishi qonuniyatlari hamda ularning mexanizmlari tadqiq etiladi. Bu borada psixologlar tomonidan shaxsga nisbatan turlicha ta'rif berilgan va uning tuzilishini o'ziga xos tarzda tasavvur qilishgan.

A.G.Kovalevning fikricha, shaxs - bu ijtimoiy munosabatlarning ham obykti, ham subyektidir.

A.N.Leontev ushbu masalaga boshqacharoq yondashib, unga shunday ta'rif beradi: shaxs - bu faoliyat subyektidir.

K.K.Platonovning talqiniga binoan: jamiyatda o'z rolini anglovchi, ishga layoqatli, yaroqli a'zosi shaxs deyiladi. Bu muammo mohiyatini chuqurroq ochishga harakat qilgan

S.L.Rubinshteyn ta'rificha, shaxs - bu tashqi ta'sirlar yo'nalishini o'zgartiruvchi ichki shart-sharoitlar majmuasidir.

S.L.Rubinshteyn bo'yicha shaxs quyidagi tuzilishga ega: Yo'nalganlik - ehtiyojlar, qiziqishlar, ideallar, e'tiqodlar, faoliyat va xulqning ustuvor motivlari hamda dunyoqarashlarda ifodalanadi. Bilimlar, ko'nikmalar, malakalar - hayot va faoliyat jarayonida egallanadi. Individual tipologik xususiyatlar - temperament, xarakter, qobiliyatlarda aks etadi. K.K.Platonov ta'limotiga ko'ra, shaxs tuzilishi quyidagi shaklga ega:

I. Yo'nalganlik osttuzilishi - shaxsning axloqiy qiyofasi va munosabatlarini birlashtiradi. Undan harakatchanlik, barqarorlik, jadallik, ko'lam (hajm) darajalarini farqlash lozim.

II. Ijtimoiy tajriba osttuzilishi – ta'lim vositasida, shaxsiy tajribada egallangan bilimlar, ko'nikmalar va odatlarni qamrab oladi.

Har bir shaxs o'ziga xos qaytarilmas dunyo. Dunyoda bir-biriga aynan o'xshash bo'lgan ikki kishini topish juda mushkul. Odam tashqi qiyofasi, bo'yi basti bilan boshqa biror kimsaga o'xshashi mumkin, lekin fe'li, mijoz va shaxs sifatidagi xususiyatlari nuqtai nazaridan aynan bir xil insonlar bo'lmaydi. Hattoki, olimlar bitta tuxumda rivojlangan egizaklarda ham juda ko'p jihatdan aynan o'xshashlikni qayd qilishgan, shaxsiy sifatlaridagi korrelyatsiyada esa ba'zi tafovutlar aniqlangan. Shaxs – qaytarilmas, u o'z sifatleri va borligi bilan noyobdir. Ana shu qaytarilmaslik va noyoblikning asosida uning individual psixologik xususiyatlari yotadi.

Shaxsning eng muhim xususiyatli jihatlaridan biri - bu uning individualligidir. Individuallik deganda insonning shaxsiy psixologik xususiyatlarining betakror birikmasi tushuniladi. Individuallik kishining o'ziga xosligini, uning boshqa odamlardan farqini aks ettiruvchi psixologik fazilatlar birikmasidir. Individuallik tarkibiga xarakter, temperament, psixik jarayonlar, holatlar, hodisalar, hukmron xususiyatlar yig'indisi, iroda, faoliyat motivlari, inson maslagi, duny qarashi, iqtidori, har xil shakldagi reaksiyalar, qobiliyatlari va shu kabilar kiradi.

«Endopsixika» moyillik, xotira, tafakkur va xayol xususiyatlari, irodaviy zo'r berish, tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik kabi boshqa xislatlarni, «ekzopsixika» esa kishi munosabatlari tizimi va uning tajribasini, qiziqishlarini, moyilliklarini, ideallarini ustun darajadagi histuyg'ularini shakllangan bilimlari va boshqa belgilarini o'z ichiga oladi. Tabiiy asosdagi «endopsixika» ijtimoiy omil bilan belgilanadigan «ekzopsixika»ga qarama-qarshi o'laroq, biologik jihat bilan bog'liqdir.

Shaxs o'zining faoliyati tufayli tevarak-atrofdagi olam bilan faol munosabatda bo'ladi. Shaxsning faolligi deganda odamning atrofdagi tashqi

muhitga ko'rsatadigan ta'siri tushuniladi. Tashqi muhit bilan faqat odamlar emas, hayvonlar ham o'zaro munosabatda bo'ladilar. Lekin hayvonlar tashqi muhitga moslashib yashaydilar, odamlar esa tashqi muhitga moslashibgina qolmasdan, uni o'zgartirishga ham qodirlar. Shaxsning faolligi uning turli qiziqishlarida, ehtiyojlarida namoyon bo'ladi.

Shaxsni faoliyatga undovchi ichki turtkiga motiv deyiladi. Motivlar ikki xil bo'ladi:

- 1) anglanilgan;
- 2) anglanilmagan.

Shaxsning yo'naltirilganligida anglanilgan motivlar asosiy o'rin tutadi.

Qiziqish-insonlarning dunyoqarashi, e'tiqodlari, ideallari, ya'ni uning oliy maqsadlari, orzu niyatlari, orzu umidlari bilan bevosita muhim rol o'ynaydi. Qiziqish bilimlarni ongli, puxta, barqaror, anglagan holda o'zlashtirishda, shaxs qobiliyati, zehni, uquvchanligini rivojlantirishga, olamni mukammalroq tushunishga, bilim saviyasining kengayishiga yordam beradi.

Shaxs muayyan tarixiy hayot kechirish sharoitlarida, faoliyat (mehnat qilish, o'qish va hokazolar) jarayonida shakllanadi. Shaxsning shakllanish jarayonida guruhlar va jamoalarda amalga oshiriladigan ta'lim va tarbiya yetakchi o'rin tutadi. «Shaxsning shakllanishi» ikki xil ma'noda qo'llaniladi. Birinchisi shaxsning shakllanishi uning rivojlanish jarayoni va uning natijasi ekanligidir. Ikkinchi ma'nosi shaxsni maqsadga yo'naltirilgan tarzda tarbiyalash sifatida shakllantirishdan iborat. Psixologiya tarixida shaxs rivojlanishi va takomillashuvini harakatlantiradigan kuchlar va mana shu masalalarni hal etishning ikkita yo'nalishi mavjud bo'lgan. Bu yo'nalishlar rivojlanishning biogenetik va sotsiogenetik konsepsiyalari nomini olgan. Biogenetik konsepsiya inson shaxsining rivojlanishi biologik, asosan nasliy omillar bilan belgilanishiga asoslanadi. Shuning uchun ham shaxsning rivojlanishi ichki sabab natijasida (o'zidan o'zi) sodir bo'lish xususiyatiga egadir.

Sotsiogenetik konsepsiya shaxsni tevarak atrofdagi ijtimoiy muhitning bevosita ta'siri natijasi, muhitdan olingan nusxa deb hisoblaydi. Bunda ham xuddi biogenetik konsepsiyadagi kabi rivojlanib borayotgan kishining xususiy faolligi

inobatga olinmaydi, uning tevarak atrofdagi vaziyatga moslashayotgan mavjudotga xos sust o‘rin tutishi mumkin deb hisoblanadi. Agar sotsiogenetik konsepsiyaga amal qilinadigan bo‘lsa, nima uchun ba’zi vaqtlarda bir xil ijtimoiy muhitda turli odamlar yetishib chiqishini tushuntirib bo‘lmaydi.

Shaxsning shakllanishi uning jamoaga qo‘shilganligi sharoitida ro‘y beradi. A. S. Makarenko ta’kidlaganidek, shaxs yuksak darajada rivojlangan guruhdan iborat va shaxsning qimmatli fazilatlarini shakllantirish uchun eng qulay sharoitlarga ega bo‘lgan jamoada va jamoa vositasida rivojlanadi.

Shunday qilib, keltirilgan ta’riflardan shuni xulosa qilish mumkinki, shaxs deb muayyan jamiyatda yashovchi faoliyatning biror turi bilan shug‘illanuvchi, kishilar bilan normal til orqali munosabatga kirishuvchi ongli individga aytiladi. Shaxs turli ijtimoiy munosabatlar tizimi ta’sirida bo‘ladi va ko‘plab ijtimoiy institutlar (oila, mahalla, o‘quv maskanlari, mehnat jamoalari, norasmiy tashkilotlar, din, san’at, madaniyat va boshqalar) bilan bog‘liq bo‘ladi. Shaxsdagi turli g‘oyalar, fikrlar va mafkura, mafkuraviy munosabatlar tizimi ta’sirida shakllanib, ular bevosita oila, bog‘cha, maktab singari o‘quv va tarbiya muassasalari orqali ongga singdiriladi.

Adabiyotlar.

1. Sirliyev B.N. Beknazarov A.A., Arziqulov D.N. Psixologiya. O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi. Toshkent 2005.
2. F.I. Xaydarov. N.I. Xalilova. Umumiy psixologiya. Nizomiy nomidagi TDPU – 2010
3. U.Fayziyeva, N.Jumayev. Umumiy psixologiya. Buxoro – 2021.